

HARAKAT IMKONIYATI CHEKLANGAN AYOLLAR REABILITATSIYA KIYIMINING DIZAYNI LOYIHALASH



**Umarova Ma'suda Yuldashevna¹,
Rasulova Mastura Kabilovna²**

¹Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, "Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring" kafedrası katta o'ituvchisi

²Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, "Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring" kafedrası professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21824442>

Annotatsiya. Maqolada harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsiya kiyimini anketa so'rovnoma natijalari va moda yo'nalishini e'tiborga olib yangi jilet korset modelini loyihalash masalalari ko'rib chiqilgan. Loyihadagi model uchun konfeksion karta ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jilet korset, reabilitatsiya, moda, platmassa sterjen, shnur, anketa, nogironlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается проектирование новой модели жилета-корсета для женщин с ограниченными двигательными возможностями с учетом результатов анкетирования и направления моды. Для предложенной модели разработана конфекционная карта.

Ключевые слова: жилет-корсет, реабилитация, мода, пластиковый стержень, шнур, анкета, люди с ограниченными двигательными возможностями.

Abstract. This article discusses the design of a new vest-corset model for women with limited mobility, taking into account survey results and fashion trends. A materials specification sheet has been developed for the proposed model.

Keywords: corset vest, rehabilitation, fashion, plastic rod, cord, questionnaire, people with limited mobility.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda 1,0 milliarddan ortiq inson nogironlikdan aziyat chekadi. Bu dunyo aholisining, taxminan, 15 foizini tashkil etadi. Surunkali kasalliklarning kuchayishi va qarilik sabab ularning soni tobora ortib bormoqda. Harakat imkoniyati cheklangan bir guruh insonlar uchun reabilitatsiya ta'sirini shakllantiradigan, ularning funktsional imkoniyatlarini turmush tarziga moslashtiradigan kiyimdan foydalanish ularning hayot sifatini yaxshilash uchun asosiy omil hisoblanadi. Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda innovatsion tibbiyotni rivojlantirish va harakat imkoniyati cheklangan insonlar uchun keng assortimentdagi tibbiy-profilaktika va reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqishda sezilarli yutuqlarga erishilgan. Nogironlar aravachasida harakatlanadigan insonlar uchun qulay bo'lgan moslashuvchan kiyim ishlab chiqish muammosi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, qulaylikni ta'minlaydigan tejankor konstruksiyali loyihalashdan foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi [1].

Dunyoda sogʻligʻida ogʻish boʻlgan bemorlar va nogironligi bor insonlar uchun yuqori darajadagi operatsion qulaylik, oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish va xavfsizlikni taʼminlaydigan, inson ehtiyojlari va hayotining oʻziga xos xususiyatlariga moslashuvchan kiyimlarni yaratishga bagʻishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Binobarin, isteʼmolchilarning sogʻligi va hayot faoliyatini yaxshilashni taʼminlovchi yuqori sifatli yangi tikuv mahsulotlarini yaratish ustivor yoʻnalishlardan hisoblanmoqda. Bu borada, harakat imkoniyati cheklangan insonlarning jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlishi, faoliyat yuritish jarayonida qulaylikni taʼminlab beruvchi takomillashtirilgan texnologiyalar asosida moslashuvchan kiyimlar ishlab chiqishga alohida eʼtibor qaratilmoqda [2].

Ilmiy tadqiqot ishida sogʻligʻida ogʻish boʻlgan bemorlar uchun kiyim loyihalash maqsad qilib olindi.


Toshkent shahar Mirzo Ulugʻbek tumani Nogironligi boʻlgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazida 150 nafar nogironligi boʻlgan respondentlar oʻrtasida va davolovchi vrach vertebrologlar oʻrtasida 20 ta savoldan iborat soʻrovnoma oʻtkazildi. Soʻrovnomada ishtirok etgan ayollarning 60 nafari uy bekasi, 50 nafari ishchi va xodimlar va 40 nafari talabalarni tashkil etadi.

Soʻrovnomada ishtirok etgan ayollarning 20% 18 dan 30 yoshgacha, 30 % 31 dan 45 yoshni, 50% 46 dan 60 yoshgacha ayollar boʻlib, “Korsetni yangi modeli qanday koʻrinishda boʻlishini hoxlardingiz?” savoliga 52% ayollar jilet koʻrinishida, 25% ayollar oʻlchami oʻzgaradigan jilet, 23% ayollar bel va qorinni toʻliq qamrab oluvchi jilet koʻrinishida boʻlishini bildirdilar.

Soʻrovnoma natijalari asosida harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsiya kiyimini loyihalash uchun taklif etilayotgan usul va texnologiyalarning joriy etilishi isteʼmolchilarning talablariga javob beradigan va jahon bozorlarida raqobatbardosh boʻladigan reabilitatsion kiyim uchun yangi loyiha yechimlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga buyumning funktsionalligi loyihalashtirilgan obyektning asosiga aylanishi, oʻziga xos texnik jihatdan yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish boʻyicha dizayn jarayonini shakllanishiga erishildi [3]. Ayollar reabilitatsiya kiyimini shakllantirishda olib borilgan anketa soʻrovnoma natijalari va moda yoʻnalishi eʼtiborga olingan holda kiyim yangi modeli dizayn loyihasi ishlab chiqildi (1-rasm).

1-rasmda ayollar reabilitatsiya kiyimi jilet-korset yangi modelining old, orqa va yon tomondan koʻrinishlari keltirilgan. Jilet-korset koketka, old va orqa boʻlaklardan iborat. Buyumning yon tomonlarida ort boʻlakning yon qirqimlariga biriktirilgan qoʻymalar mavjud. Old va ort boʻlak oʻng tomon yon qirqimlari choʻziluvchan elastik tasma bilan biriktirilgan, chap tomon yon qirqimlari boʻylab lyuvers oʻrnatilgan boʻlib, shnur bilan bogʻlanadi. Bu buyum kengligi boylab qomat oʻlchamiga mos holda oʻzgarishni taʼminlaydi. Korset 6 ta izma va 6 ta tugmachalar bilan taqiladi. Bortlari boʻylab tugmalarni yopadigan va velkro tasma bilan mahkamlanadigan planka bilan ishlov berilgan. Yoqa va yeng oʻmirlari asosiy trikotaj polotnodan manjet bilan ishlov berilgan. Old boʻlak oʻta qismi pastki tomoni bemorni oʻtirish holatiga moslab shakldor qilib loyihalangan [4].

Old va orqa qismida plastmassa sterjenlar qoʻyish uchun vertikal toʻgʻri burchakli choʻntak-qoplamalar oʻrnatilgan. Bu choʻntaklarga bemorning tayanch-harakat tizimi holatining davolanishdan keyin saqlanishini taʼminlaydigan plastmassa sterjen kiritiladi. Old sterjen uzunligi 15 sm, ort sterjen uzunligi 22 sm. Plastmassa sterjen bemorga kreslo-aravachada oʻtirganda qulay sharoit yaratadi va qomatga botmaydi [5].



1-rasm. Ayollar reabilitatsiya kiyimi jilet-korsetning yangi modeli

Ayollar reabilitatsiya kiyimi uchun gazlama tanlashda sifat ko'rstkichlari yuqori darajalari talab etiladi. Reabilitatsiya kiyimidan foydalanish davomida gazlamalarning gigiyenik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega, gigriskopiklik, ya'ni namlikni yutish xususiyati, havo o'tkazuvchanlik xususiyati, rang barqarorligi va ishqalanishga chidamli bo'lishi kerak [6-7].

Material nomi	Artikul	Namuna
Asosiy material	Zich to'qilgan bo'z Tola tarkibi 100% paxta Y/z: 285,0 g/m ²	
Asosiy material	Tola tarkibi 92% paxta 8% laykra Y/z: 180,0 g/m ²	
Furnitura	Snur Uzunligi 200 sm diametri 0,4 sm LX 40, Diametr 1,8 sm	
"Velkro" tasma	Kengligi 4 sm Uzunligi 6 sm	
Korrektor elementi	Artikul Uzunligi: 22 sm Qalinligi: 0,3 sm Eni: 1,7 sm	

2-rasm. Konfeksion karta

Tanlangan materiallarning qalinligi material yuza zichligi qiymatiga bog'liq. Jilet-korset koketkasi uchun tanlangan material 180,0 g/m² yuza zichligiga ega bo'lgan trikotaj polotnosi hisoblanib, tolasiga 10% gacha laykra tolasini qo'shib to'qilishi mahsulot sifatligini va qayishqoqligini ta'minlaydi. Jilet-korset old va ort bo'laklari uchun tola tarkibi 100% paxta, yuza

zichligi 216,7 g/m² bo'lgan namuna va yuza zichligi 285,0g/m² bo'lgan namuna tavsiya etildi. Bu materiallar ekspluatatsiya jarayonida cho'zilmaydi, oson yuviladi, shakl mustahkamligi yuqori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. K.B.Mirziyodova, M.K.Rasulova, M.Y.Umarova "Design issues of adaptive garments for women with disabilities" CAHIERS MAGELLANES-NS Volume 06 Issue 2 2024.
2. Development of the calculation method of polymer compound mass to be applied onto the textile garment pieces Tashpulatov S.Sh., Rasulova M.K., Cherunova I.V., ... SCOPUS. 2018 september.
3. Бикбулатова А.А. Социокультурная адаптация: Мода без границ, уникальные практики адаптации людей с инвалидностью// РГУ им. Косыгина 2013.
4. Дзяюдинова Т.М., Тухбатуллина Л.М., Хамматова В.В. Проектирование адаптивной одежды с использованием текстильных надувных конструкции // Казанский национальный исследовательский технологический университет. –Россия, Казань. 2020 г.
5. Бабенко Л.Г., Савельева Н.Ю. Обеспечение безопасного нахождения людей с ограниченными двигательными возможностями в условиях отрицательных температур окружающей среды // Current issues of social security and demography. 2022 г.
6. K.B.Mirziyodova, M.K.Rasulova, M.Y.Umarova Harakat qobiliyati cheklangan ayollar tana shaklining morfologik xususiyatlarini o'rganish TTYSI 2024.
7. M.Y.Umarova, M.K.Rasulova Harakat imkoniyati cheklangan ayollar uchun kiyim loyihalashga qo'yiladigan talablarni aniqlash TTYSI 2025.